



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b:
B.Bobojonov

«23» sentabr 2026 y.
№ 595

Avtotransport vositalarida yo'lovchi tashishni tashkil etish xizmati bo'yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1	Buyurtmachi	“Biznesni Rivojlantirish Banki” ATB.
2	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Avtotransport vositalarida yo'lovchi tashishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar xaridi (mobil ilova, veb-interfeys, aloqa markazi orqali avtomobilga qo'ng'iroq qilish imkoniyati bilan).
3	Buyurtmachi manzili	Toshkent sh, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 18 — A uy.
4	Tanlov o'tkazish uchun asos	O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №684 — sonli “Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-259-sonli Farmoni Bank boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrda 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi.
5	Xizmatning batafsil tarkibi	1. Xizmatni buyurtma qilish tartibi 1.1. Ijrochi Buyurtmachining yoki uning vakolatli vakillarining (shu jumladan bevosita foydalanuvchilarning) dastlabki so'roviga asosan xizmatlarni ko'rsatadi. 1.2. So'rov avtomobilni taqdim etish vaqtidan kamida 15 (o'n besh) daqiqa oldin quyidagi usullardan biri orqali yuborilishi lozim: 📞 Ijrochining mobil ilovasi orqali; 🌐 Ijrochining rasmiy veb-saytidagi Buyurtmachining shaxsiy kabineti orqali; 📞 yuqoridagi usullar orqali buyurtma yuborishning imkoni bo'lmagan taqdirda — qo'llab-quvvatlash xizmati operatori orqali.

		1.3. Qo'llab-quvvatlash xizmati operatori orqali buyurtma yuborilganda foydalanuvchining telefon raqami shaxsiy kabinetda avtorizatsiya qilingan bo'lishi shart. 1.4. Ijrochi buyurtma berishning yuqorida ko'rsatilgan barcha usullarini taqdim etishi shart. <u>2. Mobil ilovaga qo'yiladigan talablar</u> 2.1. Mobil ilova "Android" va "iOS" operatsion tizimlarida ishlashi shart. 2.2. Mobil ilova internet tarmog'iga ulangan smartfon va planshetlarda uzluksiz ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. 2.3. Mobil ilova "Google Play" va "App Store" platformalarida joylashtirilgan hamda foydalanuvchilar tomonidan erkin yuklab olinishi va o'rnatilishi mumkin bo'lishi shart. 2.4. Mobil ilova foydalanuvchining roziligi asosida geolokatsiyani real vaqt rejimida aniqlash funksiyasiga ega bo'lishi lozim. <u>3. Buyurtmachining shaxsiy kabinetiga qo'yiladigan talablar</u> 3.1. Ijrochi Buyurtmachi uchun shaxsiy kabinetni taqdim etishi shart. 3.2. Shaxsiy kabinet quyidagi imkoniyatlarni ta'minlashi lozim: 🕒 xizmatlardan foydalanish tarixini ko'rish; 🕒 ma'lum davr uchun hisobot va reestrlarni yuklab olish; 🕒 qatnov davomiyligi; 🕒 xizmat qiymati; 🕒 boshlanish va yakunlanish manzillari; 🕒 xizmatdan foydalangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish. 3.3. Shaxsiy kabinet quyidagi funksiyalarga ega bo'lishi shart: 🕒 yangi foydalanuvchilarni qo'shish; 🕒 vakolatli shaxslarni birlashtirish; 🕒 foydalanuvchilarning huquqlarini belgilash; 🕒 foydalanuvchilar vakolatlarini cheklash. 3.4. Quyidagi funksiyalar mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq: 🕒 iyerarxik boshqaruv tizimini yaratish; 🕒 sub-administratorlar guruhlarini tashkil etish; 🕒 alohida kirish huquqlarini belgilash; 🕒 foydalanuvchilar uchun xizmatdan foydalanish vaqtini cheklash; 🕒 foydalanuvchilar guruhlari bo'yicha cheklavlar o'rnatish; 🕒 bir vaqtning o'zida bir nechta avtomobil buyurtma qilish imkoniyatini boshqarish. <u>4. Shaxsiy kabinetni joriy etish</u> 4.1. Ijrochi shartnoma tuzilgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida: 🕒 Buyurtmachining shaxsiy kabinetini sozlashi; 🕒 vakolatli shaxslar uchun o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi; 🕒 shaxsiy menejer va (yoki) qo'llab-quvvatlash xizmati operatorining aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi shart. 4.2. Buyurtmalar faqat Buyurtmachi yoki uning vakolatli shaxslari tomonidan yuborilgan taqdirda qabul qilinadi. 4.3. Buyurtmachi vakolatli shaxslar ro'yxatini Ijrochiga taqdim etadi. 4.4. Login yoki parol yo'qolgan yoxud ulardan ruxsatsiz foydalanish aniqlangan taqdirda Buyurtmachi bu haqda darhol Ijrochini xabardor qilishi shart. <u>5. Buyurtmanomaga qo'yiladigan talablar</u> Buyurtmanomada kamida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi shart: 🕒 yo'lovchining telefon raqami; 🕒 avtomobilni taqdim etish sanasi va vaqti; 🕒 avtomobilni taqdim etish manzili; 🕒 borish manzili; 🕒 oraliq manzillar (mavjud bo'lsa);
--	--	--

- ⌚ tarif;
- ⌚ safar tafsilotlari;
- ⌚ yo'lovchilar soni;
- ⌚ bagaj mavjudligi;
- ⌚ haydovchi uchun zarur boshqa ma'lumotlar.

6. Avtotransport vositalarini taqdim etish talablari

6.1. Ijrochi buyurtma berilgan vaqtdan boshlab 15 (o'n besh) daqiqa ichida kamida 15 ta avtotransport vositasini taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishi shart.

6.2. Shundan kamida 3 tasi mobil ilova orqali buyurtma qilinadigan avtotransport vositalari bo'lishi lozim.

7. Buyurtmani bajarish tartibi

7.1. Avtotransport vositasi manzilga yetib kelgach Buyurtmachiga SMS yoki mobil ilova orqali quyidagi ma'lumotlar yuboriladi:

- ⌚ avtomobil rusumi;
- ⌚ davlat raqami;
- ⌚ haydovchining telefon raqami.

7.2. Haydovchi Buyurtmachining vakolatli shaxsi bilan telefon orqali bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lishi shart.

7.3. Buyurtmachi avtomobil biriktirilgunga qadar buyurtmani bepul bekor qilish huquqiga ega.

7.4. Avtomobil kelganidan keyingi bepul kutish muddati tariflarga muvofiq belgilanadi.

7.5. Bepul kutish muddati tugaganidan keyin kutish vaqti alohida tarif bo'yicha hisoblanadi.

8. Xizmat ko'rsatish va hisob-kitob qilish tartibi

8.1. Buyurtma qabul qilinib avtomobil qidirish boshlangan vaqt xizmat ko'rsatishning boshlanishi hisoblanadi.

8.2. Xizmat qiymati quyidagilar asosida hisoblanadi:

- ⌚ kutish vaqti;
- ⌚ qatnov vaqti.

8.3. Tezkor buyurtmalarda avtomobilni yetib kelishining taxminiy vaqti buyurtma bajarilish vaqti hisoblanadi.

8.4. Safar vaqti yo'lovchi avtomobilga o'tirgan vaqtdan boshlab manzilga yetib tushguniga qadar hisoblanadi.

8.5. Avtomobil belgilangan manzilga yetib kelgan vaqt xizmat ko'rsatishning tugashi hisoblanadi.

9. Xavfsizlik va sug'urta talablari

9.1. Avtotransport vositasida tashiladigan yo'lovchilar soni ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan sig'imdan oshmasligi shart.

9.2. Ijrochi barcha yo'lovchilarning hayoti va sog'lig'i qonunchilik talablariga muvofiq sug'urta qilinishini ta'minlashi shart.

9.3. Sug'urta qatnov boshlanishidan qatnov tugaguniga qadar amal qiladi.

10. Maxfiylik talablari

10.1. Ijrochi shartnomani bajarish davomida o'ziga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarning oshkor etilmasligini ta'minlashi shart.

10.2. Maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun Ijrochi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

11. Hisobotlarni taqdim etish

11.1. Ijrochi Buyurtmachiga har oy yakunlari bo'yicha elektron shaklda hisobot taqdim etishi shart.

11.2. Hisobotda kamida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- ⌚ har bir qatnov;
- ⌚ qatnov sanasi;
- ⌚ davomiyligi;

		⌚ qiymati; ⌚ boshlanish va yakunlanish manzillari; ⌚ foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar. 11.3. Mobil ilovada oy yakuni bo'yicha har bir foydalanuvchining shaxsiy kabinetiga tegishli bir oylik hisobotlarni shakllantirish funksiyasi joriy etilishi lozim. ⌚ Foydalanuvchilarga shakllantirilgan hisobotlarni ko'rib chiqish va ularni mobil ilova orqali tasdiqlash imkoniyati yaratilishi kerak. ⌚ Buyurtmachi kabinetida har bir foydalanuvchi kesimida bir oylik hisobotlarni shakllantirish imkoniyati ta'minlanishi lozim. Mazkur hisobotlarda foydalanuvchilar tomonidan hisobotlarning tasdiqlangan yoki tasdiqlanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilishi kerak. <u>12. Uchinchi shaxslarni jalb qilish</u> 12.1. Ijrochi xizmatlarni ko'rsatish uchun Buyurtmachining qo'shimcha yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarni, shu jumladan yo'lovchilar va bagaj tashish faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan avtotransport tashkilotlarini jalb etishga haqli. 12.2. Uchinchi shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati, xavfsizligi hamda shartnoma talablariga muvofiqligi uchun javobgarlik to'liq Ijrochi zimmasida qoladi. <u>13. Mehnatni muhofaza qilish va sanitariya gigiyena talablari</u> 13.1. Xizmatlar sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash talablariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining sanitariya-epidemiologik normalari va qoidalari talablariga muvofiq ravishda ko'rsatilishi shart. <u>14. Xizmatlarni ko'rsatishda foydalaniladigan transport vositalariga qo'yiladigan talablar</u> 14.1. Avtomobillar Buyurtmachi tanlagan darajadan past bo'lmagan darajada bo'lishi kerak. <u>15. Avtotransport haydovchilariga qo'yiladigan talablar</u> 15.1. Haydovchilar quyidagilarga majbur: ⌚ avtotransport vositasining saloni (interyeri) tozaligini ta'minlash, unda ifloslanishlar va yoqimsiz hidlarning mavjud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik; ⌚ yo'lovchilarni belgilangan yo'nalish bo'yicha o'z manziliga xavfsiz va o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlash; ⌚ yo'l harakati qoidalari talablariga qat'iy rioya etish; ⌚ mijozlar bilan xushmuomalalik, odob-axloq va xizmat ko'rsatish madaniyati qoidalariga rioya qilgan holda muomala qilish. <u>16. Tariflar bo'yicha talablar</u> 16.1. Ekonom — texnik jihatdan soz va toza avtomobillar taqdim etilishi va standart sig'imli yengil avtomobillar xizmat ko'rsatishi lozim 16.2. Komfort — texnik jihatdan soz, kengroq va qulayroq avtomobillar, salon tozaligi hamda yo'lovchi qulayligiga yuqori bo'lishi, haydovchining xizmat ko'rsatish madaniyati yuqori bo'lishi lozim. 16.3. Eko — texnik jihatdan soz, kengroq va qulayroq avtomobillar, salon tozaligi hamda yo'lovchi qulayligiga yuqori bo'lishi, haydovchining xizmat ko'rsatish madaniyati yuqori hamda elektromobillar yoki gibridd avtomobillar jalb qilinishi lozim.
6	Xizmat natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi	Ijrochi shartnomada belgilangan muddatlarda ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini Buyurtmachiga joriy oy davomida bajarilgan xizmatlar bo'yicha nazorat ro'yxati (tekshiruv varaqasi) shaklida taqdim etadi. Mazkur nazorat ro'yxati mobil ilova orqali tekshiriladi va uning natijalariga asosan Buyurtmachiga tegishli hisob-fakturalar yuboriladi.

7	Qo'shimcha talablar	Ijrochi Shartnomaning amal qilish muddati davomida sutkaning 24 soati, haftaning 7 kuni rejimida qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etadi. Buyurtmachi qabul qilish yoki tushirish punktlarida haydovchining uzoq kutish vaqtini nazarda tutgan holda, bir nechta yo'nalishlar bo'yicha tashishni tashkil etish xizmatlariga buyurtma berish huquqiga ega. Mazkur xizmatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini hisobga olgan holda quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: ⌚ bir nechta yo'nalishlar bo'yicha tashishni tashkil etish hamda qabul qilish yoki tushirish punktlarida haydovchining kutish vaqti 5 (besh) soatdan oshmagan holda transport xizmatlarini ko'rsatish; ⌚ O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan boshqa transport xizmatlarini ko'rsatish.
8	Xizmatni bajarish muddati	Ijrochi tomonlar o'rtasida shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida xizmatlarni ko'rsatishni boshlashi lozim.
9	Amal qilish muddati	Shartnoma summasi to'liq foydalangunga qadar.
10	To'lov shartlari	To'lovlar shartnomada belgilangan tariflar asosida har oyda amalda ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi va turlaridan kelib chiqqan holda, bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) to'g'risidagi dalolatnoma va/yoki hisob-fakturalar imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida amalga oshiriladi.
11	Shartnoma valyutasi	O'zbekiston respublikasi milliy valyutasi — so'm.
12	Ish, xizmatni yetkazib berish/bajarish manzili	O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri hududida.

Shahar bo'ylab tariflarning boshlang'ich narxlari

Shahar	Tarif	Eng kam xizmat haqqi	Shu jumladan		Daqiqalar narxi	Kmlar narxi	Shahardan tashqarida		Bepul kutish vaqti	Pullik kutishning har bir daqiqasi narxi
			O'z ichiga oladigan daqiqalar	O'z ichiga oladigan kmlar			Daqiqalar narxi	Kmlar narxi		
Toshkent sh.	Ekonom		4	2					3	
Toshkent sh.	Komfort		4	2					3	
Toshkent sh.	Eko		4	2					3	

kelishuvchilar: A.KhASANOV, Sh.Botirov, F.Mustafoyev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=hX57yT38&id=6e11f5f8-c83f-48f8-9602-6a111fb71a35>